



HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI TASHKILLASHTIRISH VA O'TKAZISH

Soliyev Ilyosboy Islomboy O'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabasi

ilyosboysoliyev1112@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8058333>

ARTICLE INFO

Received: 13th June 2023

Accepted: 19th June 2023

Online: 20th June 2023

KEY WORDS

Harbiy tushuncha,
vatanparvarlik, mohiyat, o'quv
muassasalar, zamonaviy
usullar.

ABSTRACT

Hozirgi paytda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jarayoni Respublikamizning o'quv muassasa ta'lim tizimi bilan yangilanishi, mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi jadallashuvi, Vatan himoyasidagi insoniy omillar o'rnining o'sib borishi va jangovar mehnat tashkilidagi keskin o'zgarishlari bilan yuzaga kelgan an'analar bilan boyishi kerak. Ushbu maqolada, harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha zamonaviy metodlar va uslublar keltirib o'tilgan.

KIRISH

Oliy va o'rta maxsus ta'lim yurtlaridagi harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - davlatimiz faoliyatining muhim sohalaridan biridir.

Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlashning qayta ko'rilishi harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuniy va tashkiliy – uslubiy tomonlaridan to'laroq foydalanishni talab qiladi. Tarbiyaviy tadbirlar samaradorligi taxlili, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining amaliyoti bilan berilgan va tekshirilgan an'anaviy shakllarni tanlash va mustaxkamlash, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash vazifalarini zamonaviy sharoitlarda yanada to'la tadbiriq qiladigan yangi shakllarini qidirish zarur.

Vatan himoyasiga tayyorlikni maxsus ommaviy mudofaa ish, harbiy sport o'yinlari va boshka harbiy vatanparvarlik tarbiyasining harbiy vatanparvarlik tarbiyasining shubxasiz muhim shakllari natijasi sifatida ko'rib chiqish kerak emas.

U o'quvchi shaxsiyoti har taraflama rivojlanishi qonunga muvofiq natijasi, u tomonidan ijtimoiy madaniyat barcha boyliklarining o'zlashtirilishidir, sog'lom inson haqida gapirganimizda nafaqat jismoniy sog'likni, balki mustaxkam ma'naviy, odob - axloq normalarga ega bo'lgan, eng yaxshi umuminsoniy namunalar ruhida tarbiyalangan insonni ko'zda tutamiz.

Harbiy vatanparvarlik ongning barcha qadrlil va intellektual tomonlarining shakllanishida ta'limga katta o'rin ajratiladi. Biroq bu nazariy xulosa fanlar asoslarini o'qitadigan o'qituvchilar ishi amaliyotida to'la tadbiriq qilinmaydi.

Umum ta'lim fanlari o'qituvchilari harbiy vatanparvarlik tarbiyasi vazifalari va shu vazifalarni hal etilishdagi ular tomonidan o'qitilayotgan fanlar imkoniyatiga yuzaki qaraydi.



Vatan himoyachilarini tarbiyalash pedagogik jamoa bilan «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi, o'qishdan tashqari mudofaa - ommaviy tadbirlar, "Vatanparvar" MKJ tashkilotchilari faoliyatining tor mutaxassislik sohasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Lekin shunga ko'ra o'quvchi o'quv faoliyati davomida harbiy soha hayoti bilan yaqindan tanishtirilmasa, tinchlikni mustaxkamlash, mamlakat mudofaa qudratini kuchaytirish kabi oliy maqsaddari bilan ruhlantirilmasa, ularni kichik "tadbirlar" vositalari orqali tushunish va to'ldirish samara bermasligi mumkin, faqatgina keng doirada fikr yuritadigan insongina bugun etuk vatanparvar fuqaro bo'lib etishishi mumkin.

Mazkur mavzuni o'rganishda, ya'ni qo'lida qurol bilan o'z Vatani himoyasiga tayyor bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda ta'lim maskanlari pedagogik jamoasining faoliyati beqiyosini ko'rsatishdir.

O'quv yurtlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- Halqiga sadoqat, Vatan tarixiga va an'alariga chuqur hurmatda bo'lishni shakllantirish;
- Prezident Farmonlari, Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi hukumati qonun va qarorlarini so'zsiz bajarish lozimligi ruhida tarbiyalash;
- O'zbekiston xalqlari jangovar vatanparvarlik an'alarini targ'ibot qilish, yoshlarda harbiy xizmatga va armiyaga muhabbat, yuksak ma'naviy - jangovar xislatlar, harbiy Qasamyod va harbiy Nizomlarni bajarishda shaxsiy javobgarlik hamda jasurlik, intizomlilik, zukkolik, o'z Vatani himoyasiga doimo tayyor bo'lishni tarbiyalash.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy mazmuni:

- Vatanini himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsion burchini tushuntirish;
- O'zbekiston Respublika mudofaasini kelgusida kuchaytirish masalalari bo'yicha xukumat qarorlari bilan tanishish;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan hal qilinadigan masalalar va ularning vazifasi va xususiyatlarini tushuntirish;
- O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risi"gi qonuni, harbiy Qasamyod va harbiy Nizomlarning asosiy talablarini o'rganish va o'zlashtirish;
- yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning maqsad va vazifalarini tushuntirish;
- ajdodlar merosi, buyuk va jasur ota - bobolarimizning jangovar an'ana udumlarini targ'ibot qilish.

O'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida ijtimoiy tashkilotlar va oilaning o'rni.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasida oilaning o'rni katta. O'quvchilarning qarindoshlari bo'lgan urush qatnashchilari, armiya va flot faxriylari tarjimai hollari bilan tanishtirish, davlat mukofotlariga to'g'ri munosabatini shakllantirish kerak. O'quv muassasa pedagogik jamoasi o'quvchilarning o'yin tarzidagi harbiy faoliyatni tashkil qilishda hamda o'zoq masofalarga bolalar bilan piyoda o'tishlar (masalan, qo'ziqorin terish uchun), o'rim paytida yoki baliq ovlashga borganda ota onalarni jalb qilish kerak. Bunda bolalarni joyni aniqlash, to'siqlardan o'tish va boshqaga o'rgatish lozim. O'qituvchilar barcha yuzaga keladigan savollar bo'yicha ota onalarga maslahat berishi mumkin.



Oilaviy tarbiya o'sib kelayotgan avlodda Vatanga muhabbat hissini rivojlantirish, uning himoya, harbiy jasorat, harbiy kasbga muhabbat ahamiyati haqida to'g'ri tushuncha shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi Vatan uchun kurashlarda halok bo'lgan qarindoshlar xotirasiga bo'lgan an'analariga hurmat, ularning jangovar mukofotlari, surat va esdaliklarini avaylab asrashning ahamiyati katta.

Vatanimiz qahramonona tarixi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar jangovar yo'li, armiya va flotdagi xizmati, jangovar harakatlardagi shaxsiy qatnashuvi haqidagi ota bobolar hikoyalari bolalarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, ota bobolari qaysi yillarda, frontda va qaysi mamlakat va shaharlarning ozodligi uchun kurashgan, baynalminal burchini bajarib, ota va katta akalarning Afg'onistonda qanday jang qilgani, qanday orden va medallar bilan taqdirlangani haqida bolalarning bilishi juda muhim.

Bolalarda vatanparvarlik adabiyoti va yodnomalar, Qurolli Kuchlarimiz jangovar yo'li, xalqimiz qahramonlik jasoratlari, qahramon himoyachilarning bugunchi jangovar va ijtimoiy siyosiy tayyorgarligi haqidagi kinofilm, ko'rsatuvlarga qiziqishni rivojlantiradigan oilalar to'g'ri yo'ldan boradi.

"Vatanparvar" MKJ qo'mitasi o'quv yurtida o'quvchilarni mudofaa ommaviy ishga faol jalb qilishni ta'minlaydi, harbiy va harbiy texnik bilimlarning keng targ'ibot ishini olib bordi, chaqiriqqacha tayyorgarlik, o'yinlarini o'tkazishda yordam ko'rsatadi, mudofaa ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun o'quv moddiy bazani yaratish va mustahkamlash tashabbuskori hisoblanadi.

"Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkiloti raisi etib odatda o'quv yurti «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi saylanadi. U sinf rahbarlari, o'qituvchilarga harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishini tashkil qilishda metodik yordam ko'rsatadi, fan o'qituvchilari metodik birlashmalari ishtiroki orqali o'quv jarayonida jamiyat mudofaasi tajribasini tadbiq etadi.

Ta'lim maskanlari miqyosidagi "Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkiloti bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni tashkillashtirish mumkin:

"Vatanparvar" MKJ boshlang'ich tashkilot raisi «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi bilan yilida ikki – uch marta quyidagi masalalar bo'yicha kengash yig'ilishlari o'tkazish: "Vatan himoyachisi" bayrami, "YOshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ish holati", "Navro'z bayramiga tayyorgarlik haqida", "Xotira va qadrlash bayramiga tayyorgarlik haqida", "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni bayrami haqida", "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga, ya'ni harbiy xizmatga tayyorligi bo'yicha boshlang'ich tashkilot ishi haqida". SHu jumladan baynalminal jangchilar, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilish. Vatan himoyachisi kuniga bag'ishlangan pnevmatik miltiqdan o'q otish bo'yicha musobaqa o'tkazish mumkin.

Mudofaa ommaviy ish oyligini ibratli o'tishida badiiy filmlarning mavzuga oid ko'rsatilishi, harbiy amaliy sport turlari bo'yicha musabaqalar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Sinflarda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Vatan himoyasi", "Qurolli Kuchlarda xizmat qilish - Respublika har bir fuqarosining burchi", "Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi" mavzusida suhbatlar o'tkazish. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va o'q otish bo'yicha 10-11 sinflarda orasida musobaqa o'tkazish, "14-yanvar – Vatan



himoyachisi kuniga bag'ishlangan pnevmatik miltiqdan o'q otish musobaqasi o'tkazish, o'quvchilarning "SHunqorlar" harbiy sport o'yinida qatnashishlari katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv yurti direktori, «Chaquiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» fani o'qituvchisi va o'qituvchilarning o'quvchilar vatanparvarlik tarbiyasini tashkil qilish va o'tkazishdagi o'rni va majburiyati.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi har qanday murakkab tizim kabi boshqaruvga muhtoj. Boshqarish funksiyalari ko'p ma'noli, lekin asosiysi, uning negizida harbiy vatanparvarlik ishlarini tashkil qilish va o'quvchilarning bo'lajak harbiy xizmatga munosabati natijalari darajasi, ularning Vatan himoyasiga tayyorgarligini va uni takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishni o'rganish yotadi.

O'rta maxsus ta'lim yurtlaridagi vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni - etakchi vazifani bajaradi, bo'lajak Vatan himoyachisining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki o'quv fanlarining mazmunida xalqimizning muhim ma'naviy, axloqiy, madaniy an'analari ifodalangan. Lekin bu jarayonga vatanparvarlik tarbiyasining alohida tarkibiy qismlari bilan chegaralanish etarli emas. U Vatan himoyasiga tayyor bo'lish, barcha tarkibiy qismlari holatiga har taraflama faol amaliy ta'sir ko'rsatishi va bu tayyorlikni o'smir hayotining eng muhim tomoni sifatida anglab tushunishiga ko'maklashishi darkor.

O'rta maxsus ta'lim muassasalarida «Chaquiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisi harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni Mudofaa doktrinasi, Harbiy Qasamyod, harbiy Nizomlar, qonunlar va umumiy ta'lim fanlari hamda harbiy faoliyatning asosiy qoidalarini ochib beradigan maxsus fanlar (yoshlarni chaqiriqqaqa qadar boshlang'ich tayyorlash, fuqaro himoyasi) tashkil qiladi. O'quv yurtlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi barcha bo'g'inlarda amalga oshirilishi kerak.

Ma'naviy-siyosiy va psixologik fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan yo'nalishlar.

Ma'naviy-siyosiy fazilatlar.

Har qanday tajovuzkorliklarni qaytara oladigan, Vatanimiz harbiy qudrati har bir odam mehnati bilan yaratilishi va o'zining kelgusi rivojlanishi uchun chuqur bilimlarni talab qilishi, ijodiy faoliyat, yuqori ish qobiliyatligi, tashkilotchilik va intizomlilikka yordam berishiga o'quvchining ishonchi;

Xalqning jangovar va mehnat an'alarini emotsional qabul qilish;

O'quvchilarda fuqarolik va harbiy burchning bajarilishini tartibga soladigan umumlashtirilgan Vatan himoyachisi namunasining mavjudligi;

Ijtimoiy xissiyotlarning mavjudligi (burch, vatanparvarlik, dushmanga nafrat, Vatan himoyasi uchun shaxsiy mas'uliyat, yuqori xushyorlik);

"Vatanparvar", "Vatan", "Harbiy burch", "Mardlik", „Qahramonlik", "Jasurlik", "Botirlik" va boshqa tushuncha va mezonlarni chuqur o'zlashtirish.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" 2006 y. 6-son, 262-modda
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-sonli qarori Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi 2018 y. 23 fevral



3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: - O'zbekiston. – 2017.– 102b.
4. N.Sh. Sharipova <https://doi.org/10.5281/zenodo.7890574>
5. J.Abdurasulov <https://doi.org/10.5281/zenodo.7239000>
6. Ortiqov O. va boshqalar. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2013-yil
7. A.Yu.Sotvoldiyev. Chaqiriqqacha harbiy ta'limni tashkil etish va uning metodikasi. - T .: «Aloqachi»,
8. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi.